

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Samarqand davlat universiteti akademik litseyi
Ingliz tili fani o‘qituvchisi **Buranova Nasiba Ergashevna**
Nurmuxamedova Iroda Aynabekovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlarini keng yoritilgan. XXI asrda xorijiy til o‘qitish jarayonida yuzaga kelayotgan tendensiyalar, innovatsion metodlar va o‘quvchi hamda o‘qituvchi hamkorligini kuchaytiradigan strategiyalar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Kelgusidagi effektiv ta’lim uchun zamonaviy texnologiyalar, kommunikativ va integrativ yondashuvlar ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada shuningdek, zamonaviy ingliz tili o‘qitishdagi muammolar va yechimlar hamda zamonaviy o‘qituvchi kompetensiyalari to‘g‘risida ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, zamonaviy yondashuv, innovatsiyalar, kommunikativ metod, integrativ yondashuv, raqamli texnologiyalar, kompetensiya.

Bugungi kun globallasuvi, taraqqiyoti va texnologiyalar kirib kelishi natijasida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda sodir bo‘layotgan har bir o‘zgarish, jamiyat taraqqiyoti, ishbilarmonlik va ilmiy hamkorlik doirasining kengayishi zamon va makonga bog‘liq bo‘lmagan axborot almashinuvi haqida muhim vazifalarni qo‘yadi. Ingliz tilini o‘qitish jarayonida zamonaviy yondashuvlar nafaqat samaradorlik, balki mustaqil fikrlash, interaktiv muloqot, o‘quv motivatsiyasini oshiradi va o‘zini anglashi jarayoniga turtki beradi. Ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarning asosini innovatsion metodlar tashkil etadi. Ushbu metodlar o‘quvchilarni an’anaviy o‘rganishdan, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga undaydi. Masalan, kommunikativ metodda o‘quvchi tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko‘riladi. Mashg‘ulot davomida o‘qituvchilar o‘z ishini faqat ma’lumot yetkazish bilan cheklab qolmay, o‘quvchining so‘zlash, eshitish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantiradi [1].

Raqamli texnologiyalar va internet imkoniyatlari ingliz tili o‘qitish jarayonini tubdan o‘zgartirdi. Interaktiv platformalardan, onlayn darslar, multimedia materiallaridan foydalanish orqali o‘qitish jarayoniga yangi samara kiritildi. Zamonaviy o‘qituvchi Google Classroom, Zoom, Quizlet, Kahoot kabi vositalardan unumli foydalanib, grammatikani mustahkamlash, lug‘at boyligini oshirish, muloqot o‘rgatishda yangi usullardan foydalanmoqda. Video va audio materiallar orqali, bevosita hayotiy vaziyatlarga monand misollar asosida o‘quvchilarning til ko‘nikmalari mustahkamlanmoqda.

Ingliz tilini o‘qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv zamonaviy ta’limning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, bunda o‘quvchi bilimni egallabgina qolmay, egallagan bilimni kundalik hayotda, turli muammolarni hal qilishda qo‘llay olishi kerak. Ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan va natijaga yo‘naltirilgan qilish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, o‘quvchilarning mustaqilligini oshirish – bular kompetensiyaga asoslangan yondashuvda muhim deb topiladi. Yangi yondashuvlarda asosan o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik asosiy o‘ringa chiqadi. O‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi, metodikalardan unumli foydalanishi, leksik va fonetik mashqlarni zamonaviy yangicha shaklda tashkil etishi ingliz tili o‘rgatishni yanada samarali qiladi. O‘quvchilarning mustaqil izlanuvchilikka bo‘lgan qiziqishi va interaktsiyani rivojlantirish orqali ularning tilga nisbatan muhabbati oshadi.

Zamonaviy yigirma birinchi asr maktabidagi asosiy yondashuvlardan biri – har bir o‘quvchining shaxsiga, qiziqishlariga, imkoniyatlariga moslashtirilgan individual yondashuvdir. Differensial ta’lim, moslashtirilgan topshiriqlar, muammoli vazifalar va loyiha ishlari o‘quvchilarning ingliz tilini egallashga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi. Talabalar orasidagi o‘zaro tajriba almashinuvi, guruhlarda ishlash, rolly o‘yinlar, “debate”, “case-study”, “brainstorming” metodlari samarali hisoblanadi [2].

Innovatsion yondashuv talablariga mos yaratilgan darsliklar, multimedia qo‘llanmalari, elektron platformalardan foydalanish orqali o‘quvchi doimo yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Ingliz tili darslarida animatsion filmlar, video darslar, virtual muloqotlar, matnli va audiovizual vazifalar, QR kodli topshiriqlar o‘qitish samaradorligini oshiradi. Hayotiy va mavzuga mos topshiriqlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi. Jamiyatda ingliz tiliga bo‘lgan talab ortib borayotgani, xorijiy tillarni o‘rganish ijtimoiy, professional va madaniy muhitda ham eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi. Shu sababli ingliz tilidagi madaniy ahamiyatli materiallar, xalqaro loyiha va hamkorliklar, elchixonalar, o‘quv markazlari faoliyatini o‘rganish, xorijiy tajribalarni milliy tajriba bilan solishtirish yuqori natija beradi.

Ingliz tili o‘qitish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar – darslik va metodik materiallarning muvofiqligi, zamonaviy texnologiyalarni yetarli darajada bo‘lmaganligi, o‘quvchining mustaqil ishlash malakasining pastligi kabi masalalardan iborat. Ye’chimi esa o‘qituvchilarning doimiy malaka oshirishi, yagona uslubiy yo‘riqnoma va resurslar to‘plamini shakllantirish, interaktiv darslar, tajriba almashish, malakali mutaxassislar jalbish kabi chora-tadbirlardan iboratdir [3].

Bugungi kunda ingliz tilidan dars berayotgan zamonaviy o‘qituvchi faqat bilim manbai emas, balki har bir o‘quvchiga motivatsiya, yetakchi, hamkor va yo‘lko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchidan yuqori malaka, yangi metodlarni doimiy o‘zlashtirish, o‘quvchilarga ijodkorlik bilan yondashish, raqamli

texnologiyalardan samarali foydalanish talab etiladi. Shuningdek, pedagogik faoliyat ko‘p jihatdan psixologik va madaniy muhitga ham bog‘liq [4].

Innovatsion metodlardan foydalanish orqali ingliz tilini o‘qitishda individual va jamoaviy kompetensiyalarni rivojlantirish, til ko‘nikmalarini hayotiy holatlarda qo‘llash, ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish mumkin. Virtual sinflar, mashg‘ulotlardagi loyihalar, ishtirokchilarning mustaqil ishlashi, xalqaro onlayn olimpiadalar va tanlovlar o‘quvchilarga yangi ufqlarni ochadi. Bular xorijiy tilga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartiradi [5].

Ingliz tili ta‘limini yanada sifatli qilish uchun o‘quv dasturlarini yangilash, xalqaro tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish, dars jarayoniga ko‘plab zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun doimiy trening va seminarlarni tashkil etish zarur. O‘qitishning har bir bosqichida muammoli masalalarga individual yondashuv, ilg‘or tajribalarning keng joriy etilishi yuqori natija beradi. Natijada, ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishda, yoshlarimizni zamon talablari asosida yetuk mutaxassis va muloqotchi etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi usullar joriy etilishi nafaqat bilimlarni yanada chuqurlash, balki yoshlarimizni global ijtimoiy va iqtisodiy makonda, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topishiga xizmat qiladi.

Xulosa: Ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar – XXI asr ta‘limining muhim talabi va asosiy yo‘nalishidir. Innovatsion metodlar va texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligi oshadi, o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi yuqori bo‘ladi. Komunikativ va kompetensiyaga asoslangan yondashuv, o‘quvchi va o‘qituvchi hamkorligi, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim hamda raqamli texnologiyalar – barchasi eng ilg‘or ta‘lim jarayonini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchilarning uzluksiz rivojlanishi, innovatsion dars metodikalarini joriy etish orqali ingliz tilini o‘qitish sifati va samarasi yuqori bo‘ladi, yoshlarimizning zamonaviy jamiyatda munosib o‘rin egallashiga keng yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Richards, J.C., Rodgers, T.S. "Approaches and Methods in Language Teaching." Cambridge University Press, 2014.
2. Harmer, J. "The Practice of English Language Teaching." Pearson Education, 2015.
3. Brown, H. D. "Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy." Pearson Education, 2019.
4. Nunan, D. "Task-Based Language Teaching." Cambridge University Press, 2015.
5. Larsen-Freeman, D. "Techniques and Principles in Language Teaching." Oxford University Press, 2016.
6. Zakirova, D., Karimova, N. "Ingliz tilini zamonaviy metodlarda o‘qitish asoslari." Tashkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Krashen, S. "Principles and Practice in Second Language Acquisition." Pergamon, 2009.